




BUXORO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI



*(2021- yil yanvar - sentabr
oylari uchun dastlabki
ma'lumot)*

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yilning yanvar-sentabr oyi yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **659,4** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020-yilga nisbatan **58,0** mln. AQSh dollariga yoki **9,6** % ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)

	2020 - yil	2021 - yil	O`shish sur`ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
Tashqi savdo aylanmasi	601,4	659,4	109,6	x
Eksport	175,9	226,0	128,5	100,0
tovarlar	168,5	212,7	126,2	94,1
xizmatlar	7,3	13,3	182,2	5,9
Import	425,5	433,4	101,9	100,0
tovarlar	425,3	433,4	101,9	100,0
xizmatlar	0,2	-	-	-
saldo	-249,7	-207,5	x	x




Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSAda eksport hajmi **226,0** mln. AQSh dollariga (**28,5** % ga ko'paydi) va import hajmi **433,4** mln. AQSh dollariga (**1,9** % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – **207,5** mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

BUXORO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2021-yil yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)



Turkmaniston
TSA – 105,5
Eksport – 4,8
Import – 100,7



Rossiya Federatsiyasi
TSA – 103,9
Eksport – 41,7
Import – 62,2



Eron Islom Respublikasi
TSA – 100,0
Eksport – 79,1
Import – 20,9



Xitov
TSA – 91,4
Eksport – 28,7
Import – 62,7



Turkiya
TSA – 71,2
Eksport – 21,1
Import – 50,1



Germaniya
TSA – 47,8
Eksport – 1,1
Import – 46,7



Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Afg'oniston, Qirg'iz Respublikasi, Tojikiston va Eron bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, **TSA**da eng yuqori ulush Eron Islom Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkmaniston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Turkiya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



20 TA YIRIK HAMKOR-DAVLATLAR ICHIDA TO'RTTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR (2021-yil yanvar-sentabr)



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan beshta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Eron (58,2 mln. AQSh dollari), Afg'oniston (7,6 mln. AQSh dollari), Latviya (4,5 mln. AQSh dollari), Tojikiston (1,1 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 18 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

Buxoro jahonning 60 ga yaqin mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Turkmanistonda (16,0 %), Rossiya Federatsiyasi (15,8 %), Eronda (15,2 %), Xitoy Xalq Respublikasi (13,9 %), Turkiya (10,8 %), Germaniya (7,2 %) va Qozog'iston (3,9 %) qayd etilgan.





BUXORO VILOYATININGNING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(2021- yil yanvar- sentabr, mln. AQSh dollari)



	Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
	Turkmaniston	211,4	72,5	105,5
	<i>Eksport</i>	4,7	4,1	4,8
	<i>Import</i>	206,7	68,4	100,7
	Rossiya	209,0	168,9	103,9
	<i>Eksport</i>	22,9	24,1	41,7
	<i>Import</i>	186,1	144,8	62,2
	Eron	67,8	61,6	100,0
	<i>Eksport</i>	41,7	51,5	79,1
	<i>Import</i>	26,1	10,1	20,9
	Xitoy	166,3	84,0	91,4
	<i>Eksport</i>	24,6	4,6	28,7
	<i>Import</i>	141,7	79,4	62,7
	Turkiya	41,6	55,0	71,2
	<i>Eksport</i>	4,7	9,5	21,1
	<i>Import</i>	36,9	45,5	50,1
	Germaniya	22,5	12,0	47,8
	<i>Eksport</i>	-	0,2	1,1
	<i>Import</i>	22,5	11,8	46,7
	Qozog'iston	34,5	32,9	25,9
	<i>Eksport</i>	20,0	10,0	5,8
	<i>Import</i>	14,5	22,9	20,1
	Italiya	0,5	1,8	15,8
	<i>Eksport</i>	-	0,1	0,9
	<i>Import</i>	0,5	1,7	14,9
	Koreya Respublikasi	44,4	18,4	13,1
	<i>Eksport</i>	0,4	0,2	0,5
	<i>Import</i>	44,0	18,2	12,6
	Afg'oniston	34,2	25,9	8,8
	<i>Eksport</i>	34,0	25,8	8,2
	<i>Import</i>	0,2	0,1	0,6





BUXORO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)

	Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
	Tojikiston	3,1	8,9	8,5
	<i>Eksport</i>	2,3	8,9	4,8
	<i>Import</i>	0,8	-	3,7
	Ispaniya	0,3	0,2	7,4
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	0,3	0,2	7,4
	Latviya	4,0	0,9	5,3
	<i>Eksport</i>	0,1	0,6	4,9
	<i>Import</i>	3,9	0,3	0,4
	Polsha	3,6	5,4	4,9
	<i>Eksport</i>	1,7	5,1	3,3
	<i>Import</i>	1,9	0,3	1,6
	Ukraina	8,8	2,9	4,8
	<i>Eksport</i>	1,9	2,2	1,6
	<i>Import</i>	6,9	2,7	3,2
	Qirg'iziston	28,5	19,0	4,1
	<i>Eksport</i>	28,4	18,7	3,2
	<i>Import</i>	0,1	0,3	0,9
	Belarus	3,8	3,5	3,7
	<i>Eksport</i>	0,5	0,3	0,5
	<i>Import</i>	3,3	3,2	3,2
	Ozarbajjon	0,5	2,6	3,5
	<i>Eksport</i>	0,5	0,7	0,8
	<i>Import</i>	-	1,9	2,7
	Litva	3,9	1,7	3,4
	<i>Eksport</i>	0,3	0,9	1,0
	<i>Import</i>	3,6	0,8	2,4
	Shvetsariya	0,4	0,6	3,0
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	0,4	0,6	3,0



VILOYATNING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-sentabr, 2021-yil)



	Mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Viloyat	659,4	109,6
<i>hududlar:</i>		
Olot	14,8	149,1
Buxoro	30,1	76,3
Vobkent	17,6	217,1
G'ijduvon	75,9	164,5
Kogon	52,4	115,8
Qorako'l	13,8	99,9
Qorovulbozor	108,4	62,7
Peshku	42,9	118,3
Romitan	93,9	288,2
Jondor	30,0	210,3
Shofirkon	29,1	120,8
Buxoro sh.	103,5	98,3
Kogon sh.	36,8	161,8
Aniqlanmagan tashkilotlar	10,2	33,1

Eng yuqori hajm,
mln. AQSh dollari

Qorovulbozor- 108,4

Buxoro sh. – 103,5

Romitan – 93,9

Eng quyi hajm,
mln. AQSh dollari

Vobkent – 17,6

Olot- 14,8

Qorako'l- 13,8

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Qorovulbozor tumani **16,4%** ulush bilan **108,4** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.


Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Qorako'l tumani **2,1 %** ulush bilan **13,8** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



Viloyatning tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi MDH davlatlariga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich so'nggi yillarda biroz o'zgardi.

Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, 2021-yilning yanvar-sentabr oyida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **39,5 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020- yilga nisbatan ulushi **12,7 %** ga kamaygan.

VILOYATNING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI
(2021- yil yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning **TSAsi** 2021-yilning yanvar- sentabr oyida 2020-yilga nisbatan **12,6 %** ga ko'paydi va jami **TSAdagi** ulushi **60,5 %** ni tashkil etdi.



BUXORO VILOYATNING MDH MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)



1992- yil 4- yanvarda O'zbekiston Respublikasi MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi)ga a'zo bo'ldi. Buxoro viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2021- yil yanvar-sentabr holatiga **260,3** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport- **63,6** mln. AQSh dollariga yetgan bo'lsa, import – **196,7** mln. AQSh dollari qiymatida qayd etildi.

Viloyatning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Turkmaniston (**40,5 %**), Rossiya Federatsiyasi (**39,9 %**), Qozog'iston (**10,0%**), va Tojikiston (**3,3 %**) davlatlari bilan qayd etildi.



BUXORO VILOYATINING EKSPORTI


(2021- yil yanvar - sentabr)



Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida mamlakatning eksportyorlari soni **273** tani tashkil etib, ular tomonidan **226,0** mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan **28,5 %** ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2021- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi **94,1 %** ni tashkil etib, ular nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'i mahsulotlari (**44,3 %**), sanoat tovarlari (**31,8%**), va oziq ovqat va tirik hayvonlar (**9,8 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



BUXORO VILOYATI XSST BOYICHA EKSPORT TARKIBI (yanvar-sentabr, yillar kesimida)



XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Jami eksport	175,9	226,0	87,6	128,5	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	17,5	22,2	84,0	126,8	10,0	9,8
Ichimliklar va tamaki	1,2	1,1	2,0 b.	93,9	0,6	0,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	52,4	100,2	88,4	191,0	29,8	44,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	25,1	13,3	74,5	53,1	14,3	5,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	3,7	-	37,0 b.	-	2,1	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	2,3	1,7	121,0	71,7	1,3	0,7
Sanoat tovarlari	51,8	71,8	124,4	138,6	29,5	31,8
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	0,3	0,3	13,6	96,2	0,1	0,1
Turli xil tayyor buyumlar	14,2	2,1	18,2	15,0	8,1	1,0
Boshqa tovarlar	-	-	-	-	-	-
Xizmatlar	7,4	13,3	52,9	181,0	4,2	5,9



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-sentabr)



XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	13,0	117,1
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	0,2	50,0
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	0,7	3,5 b.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	-	-
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	1,0	90,9
Tamaki va tamaki mahsulotlari	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	43,4	2,8 b.
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	2,3	101,8
Metall rudalari va metall parchalari	-	-
Qog'oz massasi va makulatura	-	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Tabiiy yoki sun'iy gaz	6,2	145,4
Elektr toki	-	-
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	13,4	53,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Noorganik kimyo moddalari	-	-
Birlamchi shakldagi plastmassalar	-	-
O'g'itlar	0,4	80,0
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	0,2	100,0



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021-yil yanvar-sentabr)



XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	2,7	98,4
Rangli metallar	-	-
Cho'yan va po'lat	-	-
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	-	-
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar	-	-
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	-	-
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	-	-
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	1,0	-
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	3,1	99,4
Har xil tayyor buyumlar	-	-
Poyabzal	-	-
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	-	-
Boshqa tovarlar		
Maxsus operatsiyalar va turlariga ko'ra tasniflanmagan tovarlar	-	-




MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2020-yil yanvar-sentabrdagi **39,2 %** dan 2021-yil yanvar-sentabrda **28,1 %** ga kamaydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi **71,9 %** ni tashkil etdi.



BUXORO VILOYATIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR-NING ULUSHI (2021- yil yanvar-sentabr, % da)

2021- yil yanvar-sentabr oyi yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Eron (eksport umumiy hajmining **35,0 %**), Rossiya Federatsiyasi (**18,5 %**), Xitoy Xalq Respublikasi (**12,7 %**), Turkiya (**9,3 %**), Afg'oniston (**3,6 %**), Qozog'iston (**2,6 %**) va Latviya (**2,2 %**) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi **83,9** foizni tashkil etmoqda.



BUXORO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-sentabr, yillar kesimida)



Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Eron	51,5	79,1	123,5	153,6	1	1
Rossiya Federatsiyasi	24,1	41,8	105,2	173,4	3	2
Xitoy Xalq Respublikasi	4,6	28,7	18,7	6,2 b.	9	3
Turkiya	9,5	21,1	2,0 b.	2,2 b.	2	4
Afg'oniston	27,8	8,2	81,8	29,5	6	5
Qozog'iston	10,0	5,8	50,2	58,0	5	6
Latviya	0,6	4,9	-	8,2 b.	16	7
Turkmaniston	4,1	4,8	87,2	117,1	10	8
Tojikiston	8,9	4,8	3,9 b.	53,9	7	9
Polsha	5,1	3,3	3,0 b.	64,7	8	10
Qirg'iziston Respublikasi	18,7	3,2	65,8	17,1	4	11
Estoniya	1,7	2,7	-	158,8	11	12
Ukraina	2,2	1,6	115,8	72,7	10	13
Vetnam	0,1	1,5	5,9	15,0 b.	26	14
Misr	-	1,4	-	-	30	15
Pokiston	0,3	1,2	100,0	4,0 b.	18	16
Germaniya	0,2	1,1	-	5,5 b.	23	17
Litva	0,9	1,0	3,0 b.	111,1	12	18
Bosniya va Gersogovinna	0,7	0,9	-	128,6	32	19
Italiya	0,1	0,9	-	9,0 b.	34	20



BUXORO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2021- yil yanvar-sentabr)



	Mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Viloyat	226,0	128,5
<i>hududlar:</i>		
Olot	9,0	208,3
Buxoro	5,4	51,1
Vobkent	3,5	156,1
G'ijduvon	53,8	164,2
Kogon	17,3	115,5
Qorako'l	9,3	112,1
Qorovulbozor	15,0	88,8
Peshku	17,4	152,2
Romitan	14,0	156,2
Jondor	5,2	130,8
Shofirkon	9,9	87,3
Buxoro sh.	43,6	169,0
Kogon sh.	21,0	203,7
Aniqlanmagan tashkilotlar	1,6	11,5

Eng yuqori hajm,
mln. AQSh dollari

G'ijduvon – 53,8

Buxoro sh. – 43,6

Kogon sh. – 21,0

Eng quyi hajm,
mln. AQSh dollari

Buxoro – 5,4

Jondor – 5,2

Vobkent - 3,5

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni G'ijduvon tumani **23,8** % ulush bilan **53,8** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat eksporti tarkibida eng quyi ulushni Vobkent tumani **1,5** % ulush bilan **3,5** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Viloyatdagi meva-sabzavot sektori shahar va tumanlarining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim segment hisoblanadi. Shuning uchun, bu sohada meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun barcha choralar ko'rilmqda, bu esa o'z natijalarini bermoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **13,1** mln. AQSh dollari qiymatli **24,0** ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2020- yilning mos davriga nisbatan **1,9** mln. AQSh dollarida **o'silish** kuzatilib, **16,8 %** ga ko'paydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, **9,9** mln. AQSh dollariga teng **18,7** ming tonna sabzavot, shuningdek, **3,2** mln. AQSh dollari qiymatidagi **5,3** ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2021- yil yanvar-sentabr)

Davlatlar	ming tonna	mln.AQSH dollari	ulushi, % da *
Qozog'iston	13,2	5,3	40,5
Rossiya Federatsiyasi	6,2	3,5	26,7
Xitoy Xalq Respublikasi	3,5	3,0	22,9
Afg'oniston	0,9	0,9	6,9
Boshqa davlatlar	0,2	0,4	3,0


* qiymat ifodasidan

Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozog'istonga to'g'ri keladi. Bu meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **40,5 %** ini tashkil qiladi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(2021- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi **13,3** mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining **5,9** % ini tashkil etib, 2020- yilga nisbatan **81,0** % ga ko'payganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (**75,0** %) va safarlar (turizm) (**14,3** %) hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, moliyaviy xizmatlar (**9,4** %) va boshqa xizmatlar (**1,3** %) ni tashkil etgan.



BUXORO VILOYATINING IMPORTI

(2021- yil yanvar- sentabr)




2021-yil yanvar-sentabr oyida import hajmi **433,4** mln. AQSh dollarini va 2020- yilga nisbatan **101,9** % ni tashkil etdi.


Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**36,5** %), mineral **yoqilg'i** yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (**29,4** %), hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**9,1** %) hisobiga to'g'ri keldi.

XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2021- yil yanvar- sentabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021-yil yanvar-sentabrda import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **7,9** mln. AQSh dollariga kamaydi va **433,4** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



BUXORO VILOYATINING XSST BOYICHA IMPORT TARKIBI (yanvar-sentabr, yillar kesimida)



XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Jami import	425,5	433,4	58,7	101,9	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	15,2	21,6	3,4 b.	142,8	3,5	5,0
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,3	-	2,1 b.	-	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	16,0	15,3	101,4	95,8	3,8	3,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	175,9	127,6	50,0	72,5	41,3	29,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,5	1,3	2,5 b.	2,5 b.	0,1	0,3
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	40,5	39,6	109,8	97,7	9,5	9,1
Sanoat tovarlari	34,3	45,6	128,6	132,8	8,1	10,5
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	98,7	157,7	50,5	159,8	23,2	36,5
Turli xil tayyor buyumlar	44,1	24,4	52,8	55,4	10,4	5,6
Boshqa tovarlar	-	-	-	-	-	-
Xizmatlar	0,2	-	33,3	-	0,1	-

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021-yil yanvar-sentabr)



XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2020-yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	5,7	82,6
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	-	-
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	0,3	100,0
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	-	-
Ichimliklar va tamaki		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	-	-
Ichimliklar	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	12,4	96,9
Metall rudalari va metall parchalari	-	-
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	0,4	5,5
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	-	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	127,6	72,5
Ko'mir, koks va briketlar	-	-
Elektr toki	-	-
Tabiiy yoki sun'iy gaz	-	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	1,3	-
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar; boshqa joyda tasniflanmagan hayvonlar va o'simlik yog'lari va moylaridan olingan texnik aralashmalar va preparatlar	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	0,6	2,0 b.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	14,7	124,6
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	4,4	88,0
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari	0,2	66,7



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021-yil yanvar-sentabr)



XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	1,9	48,6
Metaldan tayyorlangan buyumlar	7,7	106,9
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	-	-
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	1,5	154,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	-	-
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	-	-
Avtomobillarning ehtiyot qismlari	-	-
Avtomobillar, asosan yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan avtoulavlar (10 va undan ortiq kishini tashishga mo'ljallangan transport vositalaridan tashqari)	-	-
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	1,	53,7
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	1,8	45,1
Har xil tayyor buyumlar	0,3	75,0
Boshqa tovarlar		
Maxsus operatsiyalar va turlarga ko'ra tasniflanmagan tovarlar	0,1	-

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2021- yil yanvar-sentabr oyi yakuni bo'yicha Buxoro viloyati tomonidan 60 davlatdan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Turkmaniston, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Germaniya, Eron va Qozog'iston) jami importning **83,8 %** ulushini tashkil qildi, bu **363,4 mln. AQSh dollarini** tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021-yil yanvar-sentabr % da)



BUXORO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-sentabr, yillar kesimida)



Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Turkmaniston	68,4	100,7	33,1	147,2	3	1
Xitoy Xalq Respublikasi	79,4	62,7	56,0	79,0	2	2
Rossiya Federatsiyasi	144,8	62,2	77,8	43,0	1	3
Turkiya	45,5	50,1	123,3	110,1	4	4
Germaniya	11,8	46,7	52,4	4,0 b.	7	5
Eron	10,1	20,9	38,7	2,1 b.	8	6
Qozog'iston	22,9	20,1	157,9	87,8	5	7
Italiya	1,7	14,9	3,4 b.	8,8 b.	6	8
Koreya Respublikasi	18,2	12,6	41,4	69,2	12	9
Ispaniya	0,2	7,4	66,7	37,0 b.	35	10
Tojikiston	-	3,7	-	-	40	11
Ukraina	2,7	3,2	39,1	118,5	9	12
Belarus Respublikasi	3,2	3,2	97,0	100,0	10	13
Shvetsariya	0,6	3,0	150,0	5,0 b.	21	14
Belgiya	1,5	2,7	29,4	180,0	14	15
Ozarbayjon	1,9	2,7	-	142,1	11	16
Hindiston	0,7	2,5	63,6	3,6 b.	20	17
Litva	0,8	2,4	22,2	3,0 b.	15	18
Gonkong	0,8	1,6	2,7 b.	2,0 b.	19	19
Polsha	0,3	1,6	15,8	5,3 b.	28	20



BUXORO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2021- yil yanvar-sentabr)



	Mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Viloyat	433,4	101,6
<i>hududlar:</i>		
Olot	5,8	103,6
Buxoro	24,7	85,4
Vobkent	14,1	240,5
G'ijduvon	22,1	165,3
Kogon	35,1	115,9
Qorako'l	4,5	81,5
Qorovulbozor	93,4	59,9
Peshku	25,5	102,7
Romitan	79,9	338,3
Jondor	24,8	240,7
Shofirkon	19,2	150,9
Buxoro sh.	59,9	75,3
Kogon sh.	15,8	127,0
Aniqlanmagan tashkilotlar	8,6	51,2

Eng yuqori hajm,
mln. AQSh dollari

Qorovulbozor – 93,4

Romitan – 79,9

Buxoro sh – 59,9

Eng quyi hajm,
mln. AQSh dollari

Vobkent – 14,1

Olot – 5,8

Qorako'l – 4,5

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Qorovulbozor tumani **21,6** % ulush bilan **93,4** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat importi tarkibida eng quyi ulushni Qorako'l tumani **1,0** % ulush bilan **4,5** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi.
Tel.: (65) 223-75-63

